# DAVRA SUHBATI O’TKAZILDI



Jinoyat ishlari boʻyicha Qoʻshtepa tuman sudining raisi A.Ergashev tomonidan tuman tibbiyot birlashmasida “Korruptsiyaga qarshi kurashish boʻyicha 2021-2022 yillarga moʻljallangan davlat dasturi ijrosi” mavzusida hamda “Chaqaloq savdosiga qarshi kurashish” faoliyatini yanada jonlantirish mavzularida kelgusida bunday jinoyatlarni oldini olish yuzasidan davra suhbati oʻtkazildi.



Tadbir davomida JIB Qoʻshtepa tuman sudining raisi A.Ergashev tibbiyot birlashmasi xodimlariga odam savdosi jinoyatining bir koʻrinishi boʻlgan biroq, undanda xavfli va achinarli jinoyat chaqaloq savdosi ekanligini, jinoyat qonunchiligida bunday jinoyat uchun ham qat’iy jazo choralari belgilanganligini va bunday jinoyatlarga qarshi kurashish lozimligini aytib oʻtdi.

Bundan tashqari, yigʻilganlarga respublikamizda yangi qabul qilingan farmon va qonunlarning mazmun-mohiyati tushuntirildi.

**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

Facebook,

2022-09-30 19:14:14